

Sharof Rushidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili", "Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili", "Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili" va "Mexanika va matematik modellashtirish" bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasidagi "Axborot texnologiyalari" fanining o'quv dasturiga tashqi

Taqriz

"Axborot texnologiyalari" fanini o'qitishdan maqsad – filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishlari talabalarini axborot, axborot tizimlari, axborot resurslari, dasturiy va texnik vositalarni joriy etish asosiy yo'nalishlari bilan tanishtirish, ularda kompyuterlarning zamonaviy dasturlari tizimida ishlash nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Ularni zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter dasturiy vositalari bo'yicha kasbiy sohasida egallashi lozim bo'lgan bilimlar va amalda qo'llash uchun ko'nikma va makolalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kash egasining faoliyati kerak bo'lgan tayanch nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

"Axborot texnologiyalari" fanining vazifasi – axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullari, zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturiy vositalari yuzasidan umumiy tasavvur va ma'lum bir bilimlar bazasini hosil qilish.

"Axborot texnologiyalari" fani talabada darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'naza matnlari, elektron materiallardan foydalanish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish kabi muhim ta'limiy ahamiyatga ega.

"Axborot texnologiyalari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari, vazifasi va elementlari, zamonaviy kompyuterlar, ularning turlari asosiy xarakteristikalari va qo'llanish sohalari, kompyuterlarning dasturiy ta'minoti, axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari, audio va video axborotlar bilan ishlash asoslari, zamonaviy telekommunikatsion vositalar va xalqaro kompyuter tarmoqlari, Internet tarmog'i va qidiruv tizimlarida mutaxassislikka doir ma'lumotlarni izlash, LMS asosida masofaviy ta'lim olish, pedagogik dasturiy vositalar, nazorat testlarini yaratuvchi dasturlar (iSpring Suite, Hot Potatoes, MyTest, easyQuizzy, Kahoot va boshqa dasturlar) va ularning imkoniyatlaridan foydalanish, iSpring va CourseLab dasturlaridan foydalanish, bulutli texnologiyalar, Google tomonidan ta'lim muassasalari uchun taqdim etiladigan asosiy onlayn bulutli hisoblash xizmatlari, Google Docs va Google Classroom platformalari yuzasidan bilinga ega bo'lishi kerak.

"Axborot texnologiyalari" fanidan olingan bilim, ko'nikma va malakalar bo'lajak filologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida asosiy o'rinni tutib, yoshlarga bilim berishda va mutaxassis tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fan dasturi o'quv fanining malaka talablaridagi so'ngi o'zgarishlarni inobatga olgan holda tayyorlangan bo'lib, uning asosiy maqsad va vazifalari ta'lim sohasida zamonaviy ishchi dasturlar izchilligini doimiy ta'minlash, zamon talabiga javob beradigan yangicha metodika va yondashuvlardan samarali foydalanish masalalari alohida inobatga olingan.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, "Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili", "Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili", "Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalarini uchun tayyorlangan "Axborot texnologiyalari" fan dasturi barcha qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman hamda ta'lim berish faoliyatida foydalanishga tavsiya qilaman.

O'zbekiston-Pakistonda pedagogika
informatika katedrasi dotsenti

dots. S.Raximov



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARAQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
INTELLEKTUAL TIZIMLAR VA
KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI
FAKULTETI**

Ro'yxatga olindi:

№ BD-60230100
2024 yil "10" "15"

"TASDIQLAYMAN"

SamDU rektori:

R.I.Xalmuradov

2024 yil " " "

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230000 - Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230100 - Filologiya va tillarni o'qitish

Fan/modul kodi ATE05	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami (soat)
	Axborot texnologiyalari	60	90	150

Fanning maqsadi (FM)

FM1	I. FANNING MAZMUNI
	Fanni o'qitishdan maqsad - Talabalarni axborot resurslari, dasturiy va texnik vositalarni joriy etish asosiy yo'nalishlari bilan tanishtirish, ularda kompyuterlarning zamonaviy dasturlari tizimida ishlash va dasturlash amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.
	Fanning vazifasi - Axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullari, zamonaviy komputer texnologiyalari yuzasidan umumiy tasavvur va ma'lum bir bilimlar bazasini hosil qilish.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)	
II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza(M)	
M1	"Axborot texnologiyalari" faniga kirish. Axborot texnologiyalari fanining maqsadi, ob'ekti va predmeti. Axborot tushunchasi, uni jamlash, uzatish va qayta ishlashning usul va vositalari. Axborotlarning turlari va xossalari. Axborotlarni tasvirlash turlari va formalari. Axborotlarning o'lchov birliklari.
M2	Zamonaviy kompyuter turlari va arxitekturas. Kompyuterning asosiy qurilmalari va tizim blokining tarkibiy qismlari. Zamonaviy kompyuter turlari va arxitekturas. Kompyuterning qo'shimcha qurilmalari. Qo'shimcha qurilmalarning asosiy xususiyatlari, turlari va vazifalari.
M3	Kompyuterning axboriy-mantiqiy asoslari. Mantiqiy amallar. Mantiqiy fuksiyalar va ularning rostlik jadvali Sanoq sistemalari. Sanoq sistemalarida arifmetik amallar bajarish. Sonlarni bir sanoq sistemasidan boshqa bir sanoq sistemasiga o'tkazish usullari. Kompyuterlarning dasturiy ta'minoti. Dasturiy ta'minot. Operatsion tizimlar. Umumiy ma'lumotlar va ularning turlari (MS-DOS, Norton Commander,

	Windows). Fayl, katalog tushunshalari. Disklar. Zamonaviy operatsion tizimlar (Windows, Linux, Unix). Mobil va tarmoq operatsion tizimlar.
M4	Komputerda axborotlarni saqlash va himoyalash vositalari. Antivirus dasturlar: detektorlar, revizorlar, doktorlar, filtrlar. Antivirus dasturlar bilan ishlash texnologiyalari. Axborotlarni saqlash va himoyalash. Arxivator-dasturlari. Fayl va kataloglarni arxivlash, arxivlash vazifasi va prinsplari. Ko'p tomli va o'z-o'zini arxivlaydigan arxivlar yaratish va ochish.
M5	Dasturiy vositalar. Hujjatlarni qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalari. Matn muharrirlari. Word matn muharriri. Word matn muharriri vositalar paneli va undan foydalanib hujjatlar bilan ishlash. Jadvallar yaratish. Jadvallar bilan ishlash. Tayyor rasmlarni o'rnatish va tahrirlash. Chizmalarni tayyorlash va o'rnatish. Hujjatlarni chop etish.
M6	Elektron jadvallar. Formula va funktsiyalar bilan ishlash. Hujjatlarni yaratish, saqlash va yuklash. Oddiy jadvallarni hosil qilish. Excelda asosiy statistik va matematik funktsiyalar. Diagramma va grafiklarni hosil qilish. Ma'lumotlarni saralash. Excelda elektron jadvallar yaratish va ularni qayta ishlashda dasturlash elementlaridan foydalanish.
M7	Kompyuterlarda namoyish dasturlar bilan ishlash texnologiyalari. Namoyish dasturlari. Power Point, Prezi, Canva dasturlari va ulardan foydalanish asoslari, namoyish vositalari yaratish, tasvirlarni saqlash, yuklash va ularni muharrirlash. Audio va video texnologiyalari. Audio va video fayllar bilan ishlashga mo'ljallangan dasturlar. Audio va videofayllarni boshqarish va tahrirlash Video muharrir dasturlari va ularning imkoniyatlari. Bandicam, Comtasiya studio, Capture dasturlaridan foydalanish asoslari.
M8	Kompyuter grafikasi va ularning turlari. Kompyuter grafikasi. Kompyuter grafikasi turlari: vektorli, rastri, fraktal, CD-grafika. Grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari. Grafik axborotlarni kiritish, taxrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari.
M9	Komputer tarmoqlari. Axborotlashgan tizimlar. Kommunikatsion vositalar va tarmoqlar. Komputer tarmog'ining asosiy tushunchalari va turlari. Internetning sonli manzillari. Internet tarmog'idan foydalanish sohalari. Internet xizmat turlari. Elektron pochta (E-mail). Elektron pochta bilan ishlash asoslari. Kompyuter tarmog'i protokollari. Internetga bog'lanish usullari.
M10	Masofaviy ta'lim texnologiyalari. LMS – ta'limni boshqarish. LMS (Learning management systems – ta'limni boshqaruv tizimlari) haqida.

	LMS platformalari turlari va vazifalari. LMS asosida masofaviy ta'lim olish. Moodle platformasi. LMS asosida masofaviy ta'lim olish. Google Classroom platformasi. MOOC (massive open online courses – mashhur ochiq onlayn kurslar) haqida. MOOC platformalari turlari va vazifalari. Coursera, Khan Academy, Lektorium, EdX, Udemy platformalari bilan tanishish.
M11	Onlayn nazorat dasturlari. MyTest dasturi va undan foydalanish. Onlayn nazorat dasturlari. Ispring va Courselab dasturlaridan foydalanish.
M12	Bulutli texnologiyalar. Bulutli hisoblash. Bulutli texnologiyalarning xizmat turlari. Google-drive xarakteristikasi va imkoniyatlari.
III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar(A). Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:	
A1	Axborot tushunchasi, uni jamlash, uzatish va qayta ishlashning usul va vositalarini o'rganish. Axborotlarning turlari, xossalari, tasvirlash turlari, formalari va o'lchov birliklarini o'rganish.
A2	Zamonaviy kompyuter turlari va arxetekturasi, texnik ta'minoti turlari va vazifalarini o'rganish.
A3	Kompyuterda axborotlarni qayta ishlashning mantiqiy va arifmetik asoslarini o'rganish. Sanok sistemalari. Sanoq sistemalarida arifmetik amallar bajarish. Sonlarni bir sanoq sistemasidan boshqa bir sanoq sistemasiga o'tkazish usullari.
A4	Axborotlarni kodlash va dekodlash tushunchalari. Matnli, grafik va Audio va video axborotlarni kodlash. Axborotlarning kompyuterda tasvirlanishi.
A5	Axborot tizimlarining tuzilmasi, turlari, dasturiy ta'minoti va ularning tasnifini o'rganish..
A6	Fayl, katalog tushunshalari. Disklar. Windows operatsion muhiti. asosiy imkoniyatlari. Windows ning asosiy elementlari. Ishchi stol.Windows da fayllar va papkalar bilan ishlash. Disklar bilan ishlash. Windowsning asosiy standart dasturlari va ilovalari bilan ishlash.
A7	Antivirus dasturlar bilan ishlash texnologiyalari. Axborotlarni saqlash va himoyalash. Arxivator-dasturlari. Fayl va kataloglarni arxivlash, arxivlash vazifasi va prinsplari.
A8	Word matn muharriri vositalar paneli va undan foydalanib hujjatlar bilan ishlash. Jadvallar yaratish. Jadvallar bilan ishlash. Tayyor rasmlarni o'rnatish va tahrirlash. Chizmalarni tayyorlash va o'rnatish. Giperilovalar bilan ishlash.
A9	Excelda hujjatlarni yaratish, saqlash va yuklash. Oddiy jadvallarni hosil qilish. formula va funktsiyalar bilan ishlash, asosiy statistik va matematik funktsiyalar. Diagramma va grafiklarni hosil qilish. Ma'lumotlarni saralash.
A10	Namoyish dasturlari Power Point, Prezi va Canva dasturlari va ulardan foydalanish asoslari. Namoyish vositalari yaratish, tasvirlarni saqlash va

	yuklash va ularni muharrirlash.
A11	Audio va videofayllarni boshqarish va tahrirlash Video muharrir dasturlari va ularning imkoniyatlari. Bandicam, Comtasiya studio, Capture dasturlaridan foydalanish asoslari. Videokonferensiya va audio konferensiya tizimlari va ulardan foydalanish. Zoom va WebCam platformalari.
A12	Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi. 3DPaint dasturida tasvirlar bilan ishlash. Grafik axbortlarni kiritish, taxrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari.
A13	Corel Draw dasturlarida tasvirlarga ishlov berish. Adobe Photoshop dasturida ishlash asoslari.
A14	Komputer tarmog'ining asosiy tushunchalari va turlari. Internetning sonli manzillari. Internet tarmog'idan foydalanish sohalari. Internet xizmat turlari.
A15	Elektron pochta (E-mail). Elektron pochta bilan ishlash asoslari. Kompyuter tarmog'i protokollari. Internetga bog'lanish usullari.
A16	LMS asosida masofaviy ta'lim olish. Moodle platformasi. LMS asosida masofaviy ta'lim olish. MOOC platformalari turlari va vazifalari. Coursera, Khan Academy, Lektorium, EdX, Udemy platformalari bilan tanishish.
A17	Onlayn nazorat dasturlari. MyTest dasturi va undan foydalanish. Ispring va CourseLab dasturlaridan foydalanish.
A18	Bulutli texnologiyalar va ularning xizmat turlaridan foydalanish. Google Classroom platformasi. Google Drive va Google Disk bilan ishlash.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
 "Axborot texnologiyalari" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari:
1.	Kodlash, dekodlash va kompyuterda saqlangan axborot hajmini o'lchash.
2.	Adobe Photoshop grafik muharriri va unda ishlash asoslari.
3.	Corel Draw dasturi va unda ishlash asoslari.
4.	Grafik muharrirlarda foto va rasmlarni qayta ishlash.
5.	Power Point + iSpring paketida ishlash.
6.	Murakkab animatsiyalar yaratish. Ko'p sahnali multfilmlar yaratish.
7.	Word hujjatlarida shakllar va blok-sxemalar yaratish.
8.	Bulutli texnologiyalar. Google Docs bilan hamkorlikda ishlash.
9.	Audio va videofayllarni boshqarish va tahrirlash.
10.	Power Pointda slaydlarda shakl, rasm, jadval va diagrammalar joylashtirish imkoniyatlari.

11.	Power Pointda slaydlarda musiqa va video joylashtirish.
12.	Axborotlarni kodlash usullari. Matnli va grafik axborotlarni kodlash.
13.	Animatsion dasturlarda harakatlanuvchi tasvirlar hosil qilish.
14.	Grafik muharrirlarda qatlamlar bilan ishlash. Kollaj va Fotomontaj.
15.	Grafik muharrirlarda matn bilan ishlash. Ob'ektlarni transformatsiya qilish va filtrlarni qo'llash.
16.	HTML tili. HTML tilining buyruqlari; HTML-hujjat, html-kod, teglar: html, head, title, body, frameset.
17.	HTML tili. Web-sahifada rasm, tasvir ro'yxatlar joylashtirish.
18.	SMM platformalar bilan tanishish. Facebook tarmog'i. YouTube sayti.
19.	SMM platformalar bilan tanishish. Telegram tarmog'i. Instagram tarmog'i.
20.	WordPress'da maqsadga yo'naltirilgan veb-sayt yaratish.
21.	WordPress'da veb-sayt dizayni bilan ishlash.
22.	Moodle platformasida ta'lim olish.
23.	Google Classroom platformasida ta'lim olish.
24.	Khan Academy platformasida ta'lim olish
25.	Kompyuterning mantiqiy ishlash asoslari.
26.	Excel dasturida matematik masalalarni yechish.
27.	Camtasia Studio dasturida ishlash asoslari.
28.	Videoni qayta ishlash va effektlar qo'yish texnologiyasi.
29.	Web - sahifa yaratuvchi dasturiy vositalar tasnifi va ularning imkoniyatlari
30.	Web-saytlar va ularning turlari.
31.	Web-sahifa va uning tuzilishi.
32.	Web brouzer dasturlari va ularning imkoniyatlari.
33.	Grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari.
34.	Grafik axbortlarni kiritish, taxrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari.
35.	Antivirus dasturlar: detektorlar, revizorlar, doktorlar, filtrlar.
36.	Antivirus dasturlar bilan ishlash texnologiyalari.
37.	Axborotlarni saqlash va himoyalash.
38.	Arxivator-dasturlari. Fayl va kataloglarni arxivlash, arxivlash vazifasi va prinsplari.
39.	Ko'p tomli va o'z-o'zini arxivlaydigan arxivlar yaratish va ochish.
40.	Zamonaviy kompyuterlarning operatsion tizimlari.
41.	Operatsion tizimlarning umumiy ma'lumotlari va ularning turlari.
42.	Bilimlar bazasi (data science) va ularni ajratib olish usullari (Data mining).
43.	Coursera platformasida ta'lim olish asoslari.
44.	Internetda ishlash asoslari, internet provayderlari va brauzerlari.
45.	Internetda ma'lumotlarni qidirish va izlash usullari, electron manzil.

"Axborot texnologiyalari" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari fan mazmunini yoritish va talabada shu yo'nalishda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tanlangan. Ushbu mavzular talabalar tomonidan axborot texnologiyalar va

axborot tizimlarining tahlili va qo'llanilishi bo'yicha chuqur bilim olishlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan. Jumladan, ma'lumotlarni raqamli shaklda tahlil qilish va uzatish usullari, raqamli tizimlarning asosiy nazariyasi hamda amaliyotda ularning qo'llanilishi. Jumladan, ma'lumotlarni raqamli shaklda qayta ishlash usullari, raqamli tizimlarning asosiy nazariyasi va ularning amaliy qo'llanilishi, ma'lumotlarni saqlash va uzatish texnologiyalari o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladi. Ma'lumotlarni boshqarish va ularning samarali qayta ishlash jarayonlarini tashkil etish usullari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'z-o'zini o'rganadigan algoritmlar, o'zgaruvchan xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari hamda ma'lumotlarning dinamik jarayonlarga moslashuvchanligini ta'minlash usullari talabalar tomonidan o'rganiladi. Shuningdek, talabalar axborot xavfsizligi, ma'lumotlarni himoya qilish usullari va kriptografiya asoslarini ham o'zlashtiradilar.

3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - Axborot texnologiyalari fanining asosiy predmeti, qismlari, tushunchalari va mohiyati haqida tasavvurga ega bo'lishi va kompyuterlarning dasturiy ta'minoti va amaliy dasturlar majmuasini bilishlari kerak; - Zamonaviy operatsion tizimlardan va amaliy dasturlardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi; - Zamonaviy kompyuterda ishlay olish va o'z kasbiy faoliyatida mustaqil foydalana olishi malakasiga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - dialogik yondoshuv; - muammoli ta'lim; - blits-so'rov; - zig-zag usuli; - munozara
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.

6.	Asosiy adabiyotlar: Aminov I.B., Suyarov A.M., Raximov S.Z. Axborot texnologiyalari fanidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2022 yil – 269 bet.
----	---

- Xuramov L., Mardonov D. Kompyuter grafikasi va geometriyasi. O'quv qo'llanma –SamDU, 2023 –yil, 175- bet.
 - Aminov I.B. Algoritmash va dasturlash asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2016 yil, 146 b.
- qo'shimcha adabiyotlar**
- Жаров, М.В. Основы информатики: Учебное пособие / М.В. Жаров, А.Р. Палтиевич, А.В. Соколов. М.: Форум, 2017. 512 с.
 - Забуга, А.А. Теоретические основы информатики: Учебное пособие / А.А. Забуга. СПб.: Питер, 2015. 80 с.
 - Кудинов, Ю.И. Основы современной информатики: Учебное пособие / Ю.И. Кудинов, Ф.Ф. Пашенко. СПб.: Лань, 2018. 256 с.
 - Ляхович, В.Ф. Основы информатики (спо) / В.Ф. Ляхович, В.А. Молодцов, Н.Б. Рьжикова. М.: КноРус, 2018. 264 с
 - Матросов, В.Л. Теоретические основы информатики / В.Л. Матросов, В.А. Горелик, С.А. Жданов. М.: Academia, 2017. 320 с.
 - Молоков, К.А. Основы информатики и программирование под Windows: Учебное пособие / К.А. Молоков. М.: Проспект, 2016. 224 с.
 - Стариченко, Б.Е. Теоретические основы информатики: Учебник для вузов / Б.Е. Стариченко. М.: Горячая линия Телеком, 2016. 400 с.
 - Жаров, М.В. Основы информатики: Учебное пособие / М.В. Жаров, А.Р. Палтиевич, А.В. Соколов. М.: Форум, 2017. 512 с.
 - Забуга, А.А. Теоретические основы информатики: Учебное пособие / А.А. Забуга. СПб.: Питер, 2015. 80 с.
 - Кудинов, Ю.И. Основы современной информатики: Учебное пособие / Ю.И. Кудинов, Ф.Ф. Пашенко. СПб.: Лань, 2018. 256 с.
 - Ляхович, В.Ф. Основы информатики (спо) / В.Ф. Ляхович, В.А. Молодцов, Н.Б. Рьжикова. М.: КноРус, 2018. 264 с
 - Матросов, В.Л. Теоретические основы информатики / В.Л. Матросов, В.А. Горелик, С.А. Жданов. М.: Academia, 2017. 320 с.
 - Молоков, К.А. Основы информатики и программирование под Windows: Учебное пособие / К.А. Молоков. М.: Проспект, 2016. 224 с.
 - Стариченко, Б.Е. Теоретические основы информатики: Учебник для вузов / Б.Е. Стариченко. М.: Горячая линия Телеком, 2016. 400 с.
 - Aminov I.B., Suyarov A.M. Dasturlash tillari asosida matematik masalalarni yechish. O'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU, 2016 yi, 156 bet.

Elektron ta'lim resurslari

www.tdpu.uz
www.pedagogika.uz
www.ziynet.uz
www.dasturchi.uz
www.ozon.ru/context/detail/id/2705337/
<http://www.borlpasc.narod.ru/>
<http://www.intuit.ru>

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil "7" <u>08</u> dagi 1 - son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: Aminov I.B., - Sh.Rashidov nomidagi SamDU, «Sun'iy intellekt va axborot tizimlari» kafedra prifessori, Bustanov X.A. – katta o'qituvchi.
9.	Taqrizchilar: A.Rashidov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, «Sun'iy intellekt va axborot tizimlari» kafedra dotsenti. (ichki) S.Raximov – O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti filiali "Informatika" kafedra dotsenti (tashqi)

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida "Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini" ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Axatqulov S.

Kafedra mudiri:

A.E.Rashidov

Fakultet dekani:

F.M.Nazarov

Sharof Rashidov nomidagi
SamDU o'quv ishlari bo'yicha

1-prorektor:

A. S. Soleyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Filologiya va tilla o'qitish: o'zbek tili", "Filologiya va tilla o'qitish: ingliz tili", "Filologiya va tilla o'qitish: rus tili" va "Mexanika va matematik modellashtrish" bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasidagi "Axborot texnologiyalari" fanining o'quv dasturiga

Taqriz

"Axborot texnologiyalari" fanini o'qitishdan maqsad – filologiya va tilla o'qitish ta'lim yo'nalishi talabalarini axborot, axborot tizimlari, axborot resurslari, dasturiy va texnik vositalarni joriy etish asosiy yo'nalishlari bilan tanishtirish, ularda kompyuterlarning zamonaviy dasturlari tizimida ishlash nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Ularni zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuterining dasturiy vositalari bo'yicha kasbiy sohada egallashi lozim bo'lgan bilimlar va amalda qo'llash uchun ko'nikma va makallarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo'lgan tayanch nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

"Axborot texnologiyalari" fanining vazifasi – axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullari, zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturiy vositalari yuzasidan umumiy tasavvur va ma'lum bir bilimlar bazasini hosil qilish.

"Axborot texnologiyalari" fani talabada darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, elektron materiallardan foydalanish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish kabi muhim ta'limiy ahamiyatga ega.

"Axborot texnologiyalari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: axborot texnologiyalarining asosiy tushunchalari, vazifasi va elementlari, zamonaviy kompyuterlar, ularning turlari asosiy xarakteristikalarini va qo'llanish sohalari, kompyuterlarning dasturiy ta'minoti, axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari, audio va video axborotlari bilan ishlash asoslari, zamonaviy telekommunikatsion vositalar va xalqaro kompyuter tarmoqlari, Internet tarmog'i va qidiruv tizimlarida mutaxassislikga doir ma'lumotlarni izlash, LMS asosida masofaviy ta'lim olish, pedagogik dasturiy vositalar, nazorat testlarini yaratuvchi dasturlar (iSpring Suite, Hot Potatoes, MyTest, easyQuizzy, Kahoot va boshqa dasturlar) va ularning imkoniyatlaridan foydalanish, iSpring va Courselab dasturlaridan foydalanish, bulutli texnologiyalar, Google tomonidan ta'lim muassasalari uchun taqdim etiladigan asosiy onlayn bulutli hisoblash xizmatlari, Google Docs va Google Classroom platformalari yuzasidan bilimga ega bo'lishi kerak.

"Axborot texnologiyalari" fanidan olingan bilim, ko'nikma va malakalar bo'lajak filologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida asosiy o'rin tutib, yoshlarga bilim berishda va mutaxassis tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fan dasturi o'quv fanining malaka talablaridagi so'ngi o'zgarishlarni inobatga olgan holda tayyorlangan bo'lib, uning asosiy maqsad va vazifalari ta'lim sohasida zamonaviy ishchi dasturlar izchilligini doimiy ta'minlash, zamon talabiga javob beradigan yangicha metodika va yondashuvlardan samarali foydalanish masalalari alohida inobatga olingan.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, "Filologiya va tilla o'qitish (ingliz tili)" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari 1 bosqich talabalari uchun tayyorlangan "Axborot texnologiyalari" fan dasturi barcha qo'yilgan talablarga javob beradi deb hisoblayman bunda ta'lim berish faoliyatida foydalanishga tavsiya qilaman.

Sh.Rashidov nomidagi SamDU
«Sun'iy intellekt va axborot tizimlari»
kafedra mudiri

dots.A.Rashidov